



ARAB TILI GRAMMATIKASIDA O'TIMSIZ FE'LLARNING PREDLOGLARINI HAZF QILISH QOIDALARI

Kamoldinova Muqaddas

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasi, 2- kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20195697>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-may 2026 yil
Ma'qullandi: 12-may 2026 yil
Nashr qilindi: 14-may 2026 yil

KEYWORDS

*o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, predlog,
to'ldiruvchi, tushum kelishigi.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada arab tili tilshunosligining o'ziga xos sintaktik hodisalaridan biri — o'timsiz fe'llarning predloglar vositasida o'timlilik xususiyatini kasb etishi masalasi tadqiq qilingan. Maqolada o'timsiz fe'lning obyekt bilan bog'lanishi hamda bu jarayonda predlogning o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, arab tilidagi “ نزع الخافض ” (predlogning hazf qilinishi) hodisasi va uning natijasida yuzaga keladigan grammatik o'zgarishlar ko'rib chiqiladi. Xususan, predlog tushirib qoldirilganda gapdagi to'ldiruvchining qaratqich kelishigidan tushum kelishigiga o'tishi, fe'lning boshqaruv quvvati bilvosita ko'rinishdan bevosita ko'rinishga almashishi ilmiy asoslangan.

Arab tili grammatikasida fe'llarning to'ldiruvchi bilan munosabati lisoniy tizimning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Aslida o'timsiz tabiatga ega bo'lgan fe'llar predloglar vositasida o'timlilik xususiyatini kasb etishi hamda obyekt bilan bog'lanishi mumkin. Bu jarayon fe'lning ma'no doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Biroq sintaktik tizimda predlog har doim ham qo'llanilmaydi. Muayyan lisoniy holatlarda predlogning tushirib qoldirilishi natijasida fe'l va ism o'rtasidagi bilvosita aloqa bevosita ko'rinishga o'tadi va ism tushum kelishigida ifodalanadi.

Asosiy qism: Tilshunos olim Abbos Hasan o'timli va o'timsiz fe'llarning to'ldiruvchilarini tavsiflar ekan, ularning o'zaro farqli jihatlariga alohida to'xtalib o'tadi. Xususan, o'timli fe'lning bevosita ta'siri natijasida tushum kelishigida keluvchi so'z haqiqiy to'ldiruvchi sanaladi. O'timsiz fe'lning predlog vositasida o'timlilik xususiyatini kasb etishi esa arab tilida “ التعدية غير مباشرة ” (bilvosita o'timlilik) deb ataladi. Bu holatda predlogdan keyin kelgan ism gapda shakliy jihatdan qaratqich kelishigida bo'lsa-da, ma'noviy jihatdan to'ldiruvchi vazifasini bajaradi [1:159]. Masalan, “ قعد المريض على السرير ” (Bemor karavotga o'tirdi.) jumlasida o'timsiz fe'l predlog orqali “سرير” so'ziga sintaktik ta'sir o'tkazmoqda. Mazkur birikma mazmunan to'ldiruvchi sanalsa-da, sintaktik tahlilda predlog mavjudligi sababli uni to'ldiruvchi termini bilan ifodalash grammatik jihatdan noaniqlik keltirib chiqaradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, predloglar vositasida o'timlilikni shakllantirish hodisasi nafaqat o'timsiz fe'llarga, balki bir yoki undan ortiq to'ldiruvchi oluvchi o'timli fe'llarga ham xosdir [2:361]. Bunday holatlarda

predlog fe'ning ma'no ko'lamini yanada kengaytirish uchun qo'llaniladi. Masalan, "سَأَلْتُ عَنْ زَيْدٍ" (Zayd haqida so'radim.) jumlasida fe'l tabiatan o'timli bo'lishiga qaramay, عن predlogi orqali obyektga bilvosita bog'lanmoqda. Agar ushbu jumla predlogsiz, ya'ni "سَأَلْتُ زَيْدًا" (Zayddan so'radim)" shaklida qo'llanilsa, fe'ning ta'siri bevosita shaxsning o'ziga qaratilgan bo'ladi. Predlog fe'l ta'sirini shaxsdan uning holatiga ko'chirishi natijasida jumlada ma'no ko'lami o'zgaradi.

وَعَدَّ لَأَزْمًا بِحَرْفِ جَرٍّ وَإِنْ حُذِفَ فَالْتَّصِبُ لِلْمُنْجَرِ [3:102]

Bayt tarjimasini: "O'timsiz fe'lni predlog orqali o'timli qil. Agar predlog tushurilsa, qaratqich kelishigidagi ismni tushum kelishigida keltir."

Ibn Molik o'timsiz fe'l to'ldiruvchini bevosita nasb holatiga o'tkaza olmasligini, faqat predlog yordamida obyektga ta'sir qilish mumkin ekanligini bayon etadi. Muallif baytda muayyan predloglarni sanab o'tmaganining sababi shuki, har bir fe'l tilning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib, semantik jihatdan munosib bo'lgan predlogni qabul qiladi. Masalan, "فرح زيد بالنجاح" (Zayd muvaffaqiyatdan xursand bo'ldi.) jumlasida o'timsiz fe'lga munosib bo'lgan ب predlogi ta'sirida "muvaffaqiyat" so'zi mazmunan to'ldiruvchiga aylanmoqda. Shuningdek, tilshunos predlog tushirib qoldirilishi natijasida qaratqich kelishigidagi ism tushum kelishigida kela olishini ta'kidlamogda. Misol uchun, "دخلت البيت" (Uyga kirdim.) jumlasida fe'l إلى predlogi orqali so'zga ta'sir ko'rsatishi kerak. Ammo ushbu predlogning hazf qilinishi natijasida fe'l to'ldiruvchiga o'timli fe'l kabi bevosita bog'lanmoqda. Bu holat arab tilida "نزع الخافض" (predlogning tushirilishi) yoki "الحذف والإيصال" (hazf qilish, fe'ning ta'sir kuchi kengayishi)" deb ataladi [4:373]. Ma'lumki, arab tilshunosligida basra maktabi vakillari predloglarni "حرف الجر" deb nomlagan bo'lsalar, kufa maktabi namoyandalari ularga nisbatan "حرف الخفض" atamasini qo'llaganlar. Tadqiq etilayotgan ushbu hodisa, ya'ni predlogning tushib qolishi tilda aynan kufa maktabi terminologiyasiga tayangan holda "نزع الخافض" deb nomlanadi.

Ibn Jinniy faqat she'rning vaznini saqlab qolish uchun o'timsiz fe'ning predlogini tushirib qoldirish mumkin ekanligini, qaratqich kelishigida kelayotgan ism o'timsiz fe'ning to'ldiruvchisi bo'la olishini ta'kidlaydi [5:48]. Deziye Saqqol o'zining "المنصوب بنزع الخافض" (Predlog tushishi natijasida nasb holatiga o'tgan ism) nomli ilmiy asarida Ibn Jinniyning ushbu qarashlari boshqa tilshunos olimlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanganiga to'xtalib o'tadi. Xususan, olimlar sintaktik tahlilda o'timsiz fe'ldan keyin kelgan qaratqich kelishigidagi birikmani shaklan to'ldiruvchi bo'lmasa-da, mohiyatan to'ldiruvchi vazifasini bajarishini e'tirof etadilar [6:19]. Shuningdek, tadqiqotchi bunday to'ldiruvchi tilshunoslar tomonidan "المفعول غير" deb nomlanishini ta'kidlab o'tadi. Jumladan, Yusuf ibn Abdulloh al-Ansoriy ham "أسرار" deb nomlanishini ta'kidlab o'tadi. Qur'oni karimda predlogning tushirib qoldirilishi sirlari) nomli ilmiy ishida predlog hazf qilinishi natijasida tushum kelishigidagi ismning grammatik maqomi haqida o'z fikrlarini bayon etadi. Olim bu holatdagi ismni "مفعول به" deb tahlil qilish xato ekanligini, zero bu xususiyat faqat asliy o'timli fe'llarga xosligini uqtiradi. Uning yondashuviga binoan, eng maqbul yo'l bunday ismni "«منصوب على نزع الخافض»" deya tahlil qilishdir [7:9].

O'timsiz fe'ning to'ldiruvchiga bevosita bog'lanish holati uning o'timli yoki o'timsiz ekanligi borasida turli ixtiloflarni keltirib chiqargan. Mazkur masala yuzasidan Ibn Siroj al-Bag'dodiy va Ibn Ya'ish o'zlarining mantiqiy xulosalarini bayon etadilar. Xususan, Ibn Siroj al-Bag'dodiy "دخلت البيت" (Uyga kirdim.) jumlasini tarkibida في predlogi tushib qolganini hamda ushbu fe'ning antonimi "خرج" fe'li o'timsiz ekanini asos qilib ko'rsatadi [8:170]. Olim muhim bir

qonuniyatga e'tibor qaratadi. Agar muayyan fe'l o'timsiz bo'lsa, uning antonimi ham o'timsiz, o'timli bo'lsa, uning zidi ham o'timli bo'ladi. Shuningdek, Ibn Ya'ish bunday holatlarda fe'lning o'timli yoki o'timsizligini uning masdar vazni orqali ham aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi [9:1660]. Masalan, "دخل" fe'lining masdari "فُعُول" vaznida bo'lgani bois, u o'timsiz fe'llar sirasiga kirishini izohlaydi.

Husayn ibn Salim "نزع الخافض في الدرس النحوي" (Grammatika darslarida vositali to'ldiruvchi predlogining tushib qolishi) nomli ilmiy ishida ushbu hodisaning yuzaga kelishida quyidagi sabablarni keltirib o'tadi [10:24-27].

- Predlogning tushib qolishiga uning nutqda ko'p qo'llanilishi sabab bo'ladi. Chunki, tilda biror narsaning ishlatilishi ko'paysa, uni tushirib qoldirish imkoniyati ham shunchalik ortadi. Muhammad al-Roziyning ta'kidlashicha, agar muayyan bir holat tilda ko'p takrorlansa, tushirib qoldirilgan taqdirda ham, xuddi nutqda talaffuz qilinayotgandek qabul qilinadi [11:177].

- She'rning vazni va qofiyasini saqlab qolish maqsadida predlogni hazf qilish mumkin, ushbu holat "الضرورة (zaruriyat)" deb ataladi. Nasrda esa uning tushib qolishi "الشذوذ (istisno)" sanalib, bunday holat juda kam kuzatiladi.

Shuningdek, tadqiqotchi o'timsiz fe'llarda predlogni tushirib qoldirishdan ko'zlangan maqsadlarga ham to'xtalib o'tadi [10:29-34]:

- Tilda ko'p qo'llaniladigan predloglar nutqni ravonlashtirish va talaffuzni osonlashtirish maqsadida hazf qilinadi. Ismning tushum kelishigida o'qilishi nutq sur'atini tezlashtirishga yordam beradi. Ibn Siroj talqiniga ko'ra, harfning tushirilishi tildagi tejamkorlik va qulaylik tamoyili bilan izohlanadi [8:171].

- Nutqdagi predlogni tushirib qoldirish orqali qisqalik va mazmuniy kenglikka erishish asosiy maqsadlardan biridir. Tilshunoslikda tushirib qoldirish orqali qisqartirish "إيجاز الحذف" deb ataladi. U so'zning fasohati va badiiy ta'sirchanligini yuksaltiruvchi eng kuchli lisoniy vositalardan biri bo'lib, oz so'z bilan keng ko'lamli ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

O'timsiz fe'l bilan kelayotgan predlogni ixtiyoriy ravishda tushirib qoldirish joiz emas. Buning uchun quyidagi zarur shartlar mavjud:

- Ifoda va aniqlik (الإفادة والوضوح). Predlogning hazf qilinganda gapning mazmuni tushunarsiz bo'lib qolmasligi shart.

- Chalkashlikning oldini olish (عدم اللبس). Predlogning yo'qligi gap bo'laklari orasida grammatik noaniqlik keltirib chiqarmasligi kerak.

- Ma'no butunligi (عدم إفساد المعنى). Nutqdan ko'zlangan asl maqsad saqlanib qolishi lozim.

- Dalilning mavjudligi (الدليل والقرينة). Gapda tushib qolgan predlogga ishora qiluvchi lisoniy yoki mantiqiy asos bo'lishi talab etiladi [6:29].

"أحب الأمويين من قریش" (Qurayshdan ummaviylarni yaxshi ko'raman) jumlasida من predlogini hazf qilib bo'lmaydi. Chunki bunda ko'zlangan asl ma'no yetkazilmay qoladi. Ushbu misolda predlog tushirib qoldirilganda "Ummaviylarni, ya'ni qurayshni yaxshi ko'raman" degan mazmunga ega gap hosil bo'ladi. Bu esa mantiqan noto'g'ridir, zero ummaviylar quraysh qabilasining barchasini emas, balki faqat bir qismini tashkil etadi.

E'tiborli jihati shundaki, har qanday fe'lda ham predlogni asossiz tushirib, so'zni tushum kelishigida keltirib bo'lmaydi. Predlogni tushirib qoldirish tilshunoslikda qat'iy qoidaga bo'ysunuvchi (qiyosiy) emas, balki ko'proq iste'molga tayangan (samoiy) xarakterga ega. Shu bois, ushbu qolipdan faqat arab klassik nutqida predlog tushirib qo'llanilgan o'rinlardagina foydalanish joizdir [12:151]. Ba'zan predlogni tushirib (أَنْ) va (أَنَّ) yuklamalaridan foydalanish

mumkin bo'lib, bu qoida asosida yuzaga keluvchi qiyosiy holat hisoblanadi. Tilshunos olimlar bu qoidaga alohida e'tibor berganlar.

وفي "أَنْ" و"أَنَّ" يطرد مع أمن لبس كأجبت أن يدوا. [3:102]

Baytning tarjiması: "Ularning tovon to'lashidan ajablandim." misoli kabi ma'noda chalkashlik yuzaga kelmaslik sharti bilan predlog tushib, "أَنَّ" va "أَنْ" yuklamalarining kelishi umumiy holatdir."

Ibn Molik predlogning tushirib qoldirib, uning o'rniga fe'lni tushum kelishigida keltira oladigan yuklamalardan foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu til amaliyotida keng qo'llaniladigan (qiyosiy) holat sanalsa-da, ma'nodagi aniqlikni saqlab qolish uning muhim shartidir. Masalan, baytda keltirilgan "عجب – hayratlanmoq" fe'li من predlogi bilan ismga ta'sir ko'rsata oladi. Biroq bu o'rinda predlog hazf qilinib "أَنَّ" yuklamasi ishlatilmoqda. Arab tilida ba'zi fe'llar birdan ortiq predlog bilan qo'llanilib, har bir holatda turlicha ma'nolarni anglatadi. Bunday vaziyatlarda predlogning hazf qilinishi gap ma'nosida noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, "رغب" fe'li في predlogi bilan kelganda "xohlamok", عن predlogi bilan esa "yoqtirmaslik" ma'nolarini ifodalaydi. "رغبت أن أجلس إلى زيد" jumlası tarkibida predlogning tushib qolishi natijasida so'zlovchining niyati noaniq bo'lib qolmoqda. Tilshunos olim Muhammad Solih al-Usayminning ta'kidlashicha, agar gapda ma'noviy chalkashlikni bartaraf etuvchi ko'rsatkichlar mavjud bo'lsa, predlogni hazf qilish joizdir [13:337]. "رغبت أن أجلس إلى زيد، لأنّ جلوسه". (Zaydning yonida o'tirishni xohladim, chunki uning suhbatı menga yoqadi.)" misoliga "لأنّ جلوسه محبوب إلي" qismi qo'shilishi gapning ma'nosini aniqlashtirib, bu yerda في predlogi nazarda tutilganini ko'rsatadi.

Ibn Aqiyl predlogning hazf qilinishi "أَنَّ" va "أَنْ" yuklamalaridan boshqa o'rinlarda qiyosiy (umumiy qoidaga asoslangan) emas, balki samoiy, ya'ni faqat arablardan eshitilgan holatlarda mumkin ekanligini ta'kidlaydi. Biroq, al-Ah'fash al-Asg'ar ushbu yuklamalar ishtirok etmagan o'rinlarda ham predlogni tushirib, ismni tushum kelishigida qo'llashni muayyan shartlar asosida joiz deb biladi. Olimning fikricha, bunday qiyosiy amaliyot uchun tushib qolayotgan predlogning o'zi va uning gapdagi o'rni mantiqan aniq bo'lishi, natijada ma'noviy noaniqlik yuzaga kelmasligi lozim [12:151]. Masalan, "بريت القلم السكين" (Qalamni pichoq bilan o'tkirladim.)" jumlası ushbu qoidaning yorqin namunasidir. Bu yerda "o'tkirlamoq" fe'li o'timli bo'lib, "qalam" uning bevosita obyekti sifatida namoyon bo'ladi. "Pichoq" so'zi esa harakat quroli bo'lgani bois, arab tili tabiatiga ko'ra, asbob-uskunani ifodalovchi so'zlar oldidan asosan vosita ma'nosini yuklovchi → predlogi ishlatilishi aniqdir. Shu sababli, predlog hazf qilinganda ham tinglovchi tushib qolgan vositaning mohiyatini yaqqol idrok etadi. Demak, al-Axfash al-Asg'arning fikriga ko'ra, tushib qolgan predlogning mantiqan aniqligi ta'yin va uning gapdagi o'rni yaqqol sezilib turishi sharti bilan ushbu grammatik hodisani qiyosiy (umumiy qoidaga asoslangan) holat deb baholash mumkin. Olim bu qoidani faqat "أَنَّ" va "أَنْ" yuklamalari bilan cheklab qo'ymay, tilning ichki imkoniyatlari hamda so'zni qisqartirish (ixchamlik) tamoyilini kengroq qo'llashga intilgan. Yuqorida zikr etilgan olimlar yondashuvning tub mohiyati shundaki, agar nutqda predlogning hazf qilinishi ma'no chalkashligiga olib kelmasa, tilning tabiiy ravonligini ta'minlash uchun uni tushirib qoldirish joiz sanaladi.

Xulosa: Arab tili grammatikasining o'ziga xos hodisasi bo'lgan o'timsiz fe'llarning predloglar vositasida obyekt bilan bog'lanishi hamda predlogning hazf qilinishi masalasini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

– O‘timsiz fe‘llar predloglar yordamida bilvosita o‘timlilik xususiyatini kasb etadi. Predlog tushirib qoldirilganda, uning ta‘siridagi ism qaratqich kelishigidan tushum kelishigiga o‘tadi. Bu jarayonda fe‘lning lug‘aviy ma‘nosi o‘zgarima-da, uning boshqaruv quvvati strukturaviy jihatdan bevosita o‘timli fe‘llarga tenglashadi.

– Predlogning hazf qilinishi har doim ham ixtiyoriy emas. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, bu hodisa gapda ma‘no aniqligini saqlash, grammatik chalkashlikning oldini olish va tushib qolgan predlogni ko‘rsatuvchi lisoniy yoki mantiqiy dalilning mavjudligi kabi qat‘iy shartlarga bo‘ysunadi.

– Predlogning tushirilish hodisasi arab tilining naqadar moslashuvchan va boy imkoniyatli til ekanligini anglatadi. U nutqni ravonlashtirish, talaffuzni osonlashtirish hamda so‘z birikmalarining semantik yukini oshirishda muhim uslubiy vosita vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. عباس حسن. النحو الوافي. – القاهرة: دار المعارف، 2018. – 616 ص
2. محمد بن مصطفى بن حسن الخضري الشافعي. حاشية الخضري على شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك. – بيروت: دار الفكر، 2003. – 944 ص
3. عبد الله جمال الدين ابن مالك الاندلسي. ألفية ابن مالك في النحو والصرف. – الرياض: دار المنهاج، 2018. – 238 ص
4. عبد الله صالح الفوزان. دليل السالك إلى ألفية ابن مالك. – القاهرة: دار المسلم، 2005. – 512 ص
5. أبو الفتح عثمان بن جني الموصلي. اللع في العربية. – عمان: دار المجذلاوي، 1988. – 177 ص
6. ديزيري سقال. المنصوب بنوع الخافض. – بيروت، 2025. – 63 ص
7. يوسف بن عبد الله الأنصاري. أسرار نزع الخافض في القرآن الكريم. – مجلة جامعة أم القرى، 2003. – 51 ص
8. أبو بكر محمد بن السراج البغدادي. الأصول في النحو. – بيروت: مؤسسة الرسالة، 1997. – 445 ص
9. على بن يعيش النحوي. شرح المفصل، الجزء الثامن. القاهرة: إدارة الطباعة المنيرة، 2002. – 2512 ص
10. حسين بن سالم الحبشي. نزع الخافض في درس النحوي. – اليمن: جامعة حضرموت للعلوم، 2004. – 386 ص
11. – محمد بن الحسن الرضي الإستريادي. شرح الرضي على الكافية، الجزء الرابع. – بنغازي: جامعة قاريونس، 1996. – 520 ص
12. عبد الله بن عقيل الهمداني. شرح ابن عقيل. – القاهرة: دار التراث، 2006. – 1394 ص
13. محمد صالح العثيمين. شرح ألفية ابن مالك، الجزء الثاني. الرياض: مؤسسة شيخ محمد صالح العثيمين الخيرية، 2022. – 571 ص
14. ص
- 15.